

YALPI HUDUDIY MAHSULOT






Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar–sentabrda Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 29 439,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 0,3 % ga kamaydi.

YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 7,2 % ga yetdi.



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2019- yil	2020- yil	
I. YaHM	26 671,5	29 439,4	99,7
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 894,2	28 847,4	99,7
 Mahsulotlarga sof soliqlar	777,3	592,0	99,4
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 894,2	28 847,4	99,7
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12 132,5	13 378,3	100,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 419,5	6 022,0	98,1
 sanoat	3 840,1	4 148,3	94,7
 qurilish	1 579,4	1 873,7	106,4
Xizmatlar	8 342,2	9 447,1	99,5

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2019- yil	2020- yil	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 782,2	1 998,9	100,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 714,6	1 864,7	99,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 845,4	5 583,5	99,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7 542,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga kamaygan.



Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,0 % ini tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 0,5 % punktga kamaydi va hisobot yilida 46,4 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmogʻining ulushi 14,4 % dan iborat boʻlib, 0,4 % punktga kamaydi, qurilishning ulushi esa 0,4 % punktga oshdi va 6,5 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 32,7 % ni tashkil qildi va oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 0,5 % punktga oshdi.




Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	97,1	98,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,9	2,0
	II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi	46,9	46,4
	Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)	20,9	20,9
	sanoat	14,8	14,4
	qurilish	6,1	6,5
	Xizmatlar	32,2	32,7
	savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	6,9	6,9


		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,6	6,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	18,7	19,3





Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jami ga nisbatan % da)



O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 100,6 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 46,4 %), qurilishda – 106,4 % (6,5 %) ni tashkil etdi. Sanoatda – 94,7 % (14,4 %) va xizmatlar sohasida – 99,5 % (32,7 %) kamayish holatlari kuzatildi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda o'sish – 100,2 % (6,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 99,8 % (6,5 %) va boshqa xizmat tarmoqlarida – 99,1 % (19,3 %) kamayish holatlari kuzatildi.




Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyotning qurilish tarmog'i YaHMning o'sishiga 0,4 f.p. va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 0,3 f.p. ijobiy hissa qo'shdi. Sanoat tarmog'i va xizmatlar sohasi mos ravishda 0,8 f.p. va 0,2 f.p. salbiy hissa qo'shdi.



**2020- yil yanvar-sentabr oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning
hissasi**



2020- yil yanvar-sentabrda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,7 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 114,1 % va xizmatlarda – 113,8 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**

